BADIIY ADABIYOTDA HAYVONOT OLAMI VA IJTIMOIY HAYOT UZVIY ALOQASINING BADIIY TALQINI (SAID AHMAD VA CHINGIZ AYTMATOV ASARLARI MISOLIDA)

Eshmatova Noila Farhod qizi
Jizzax davlat pedagogika universlteti o'zbek
til va adabiyoti yo'nalishi magistranti.
Jo'rayev Murodulla Alishboyevich
Ilmiy rahbar:Dotsent
https://doi.org/10.5281/zenodo.17377901

Annotatsiya: Ushbu ilmiy ishda o'zbek adabiyoti namoyandasi Said Ahmad va qirg'iz adabiyotining buyuk vakili Chingiz Aytmatov asarlari asosida hayvonot olami tasvirining badiiy adabiyotdagi o'rni va uning jamiyat bilan uzviy aloqasi tahlil etiladi va o'rganiladi. Yozuvchilarning ijodida hayvon obrazlari nafaqat tabiat manzaralarini jonlantirish, balki inson ruhiyatini ochib berish, jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni yoritish vositasi sifatida tahlil qilinadi. Said Ahmad asarlarida qushlar, chorva hayvonlari va ularning inson hayotidagi ramziy ma'nosi orqali xalqning turmush tarzi, axloqiy qadriyatlari ochib beriladi. Chingiz Aytmatov esa o'z asarlarida bo'ri, ot, kiyik, baliq kabi hayvonot olamini badiiy-falsafiy talqin etib, insoniyat va tabiat uyg'unligi buzilganda yuzaga keladigan fojiya oqibatlarni namoyon etadi.Tadqiqotda yozuvchilarning hayvonot olami tasviriga bergan yondashuvlari, bu tasvirlarning ijtimoiy-ma'naviy, tarbiyaviy hamda ekologik mazmuni qiyosiy tahlil qilinadi. Natijada, badiiy adabiyotda hayvon obrazlarining inson va jamiyat hayotidagi o'rni, ularning milliy va umuminsoniy qadriyatlardagi ifodasi ochiqlanadi.

Kalit so'zlar: Said Ahmad, Chingiz Aytmatov, badiiy nasr, hayvonot olami, hayvon obrazi, tabiat va inson, jamiyat, ramz, falsafiy talqin, ekologik muammo, qiyosiy tahlil.

Annotation: This scientific study, based on the works of the Uzbek writer Said Ahmad and the great representative of Kyrgyz literature Chingiz Aitmatov, analyzes and explores the depiction of the animal world in fiction and its close connection with society. In the writers' works, animal images serve not only to animate natural landscapes but also to reveal human psychology and highlight social issues. In Said Ahmad's works, through the images of birds, domestic animals, and their symbolic meaning in human life, the lifestyle and moral values of the people are revealed. Chingiz Aitmatov, on the other hand, philosophically interprets animals such as the wolf, horse, saiga antelope, and fish, demonstrating the tragic consequences of disrupting the harmony between humanity and nature. The study conducts a comparative analysis of the writers' approaches to depicting the animal world, as well as its socio-moral, educational, and ecological aspects. As a result, the role of animal images in literature and their reflection in national and universal values are revealed.

Keywords: Said Ahmad, Chingiz Aitmatov, fiction, animal world, animal image, nature and man, society, symbol, philosophical interpretation, ecological problem, comparative analysis.

Аннотация: В данном научном исследовании на основе произведений узбекского писателя Саида Ахмада и великого представителя киргизской литературы Чингиза Айтматова анализируется и изучается изображение животного мира в художественной литературе и его тесная связь с обществом. В творчестве писателей образы животных

служат не только средством оживления природных пейзажей, но и способом раскрытия человеческой психологии, отражения социальных проблем общества. В произведениях Саида Ахмада через образы птиц, домашних животных и их символическое значение в жизни человека раскрываются быт, нравственные ценности народа. Чингиз Айтматов же в своих произведениях философски осмысливает такие образы животных, как волк, лошадь, сайгак, рыба, показывая трагические последствия разрушения гармонии между человеком и природой. В исследовании проводится сравнительный анализ подходов писателей к изображению животного мира, а также его социально-нравственного, воспитательного и экологического содержания. В итоге раскрывается роль образов животных в художественной литературе, их отражение в национальных и общечеловеческих ценностях.

Ключевые слова: Саид Ахмад, Чингиз Айтматов, художественная проза, животный мир, образ животного, природа и человек, общество, символ, философская интерпретация, экологическая проблема, сравнительный анализ.

"Badiiy obraz va obrazlilik, badiiy obraz va reallik munosabatlari, dunyoqarash va badiiy ijod, badiiy ijod jarayoni xususiyatlari, badiiy asami qabul qilish jarayoni xususiyatlari kabi qator muammolar umumestetik xarakterga ega." [1-11]

Asarlarda hayvonot olami tasviri insoniyat tafakkuri va badiiy dunyoqarashining eng qadimiy qatlamlaridan biri hisoblanadi.

Dastlabki mif va afsonalarda hayvonlar faqattabiatning ajralmas bo'lagi emas, balki inson hayoti va taqdiriga ta'sir ko'rsatuvchi vositasifatida tasvirlangan. Antropomorfik obrazlar, hayvonlar orqali insoniy xatti-harakatlarning majoziy ko'rinishi qadimgi Sharq va G'arb asarlarida keng uchraydi. Masalan, Hindistondagi "Panchatantra", Aesop (Ezop) masallari, arab tilidagi "Kalila va Dimna" asarlari hayvonlar timsolida insoniy haqiqatlarni ifodalashning ibratli namunadir. O'zbek adabiyotida Mahmud Koshg'ariy, Alisher Navoiy, Mashrab, va keyinchalik Abdulla Qodiriy, Oybek, G'afur G'ulom kabi adiblar hayvon obrazlaridan ramziy va badiiy vosita sifatida samarali foydalanganlar. Ayniqsa, hayvonlar orqali ijtimoiy tengsizlik, insoniy munosabatlar, yovuzlik va yaxshilik kurashi kabi mavzular yoritilgan. Yozuvchilar hayvon obrazlaridan bir nechta yo'nalishda foydalangan:

Simvolik tasvir – hayvonlar timsolida ma'lum g'oya yoki tushunchani ramziy bayon etish; Didaktik-uslubiy yondashuv – o'rgatuvchi, ibratli qahramon sifatida hayvonlardan foydalanish; Tabiat bilan uyg'unlikda inson obrazini yoritish– ayniqsa zamonaviy adabiyotda bu uslub yuqori o'rinda turadi.

Hayvonot olamining badiiy tasviri – bu nafaqat manzaraviy yoki fon funksiyasiga ega jihat, balki chuqur semantik o'rinlarga ega bo'lgan obrazlar tizimidir. Bu obrazlar orqali yozuvchilar inson va tabiat o'rtasidagi bog'liqlikni, ekologik masalalarni, gumanizm tamoyillarini ochib beradilar. "Said Ahmadning hayvonlarga, xususan otlarga nisbatan o'zgacha mehr va e'tibor bilan qarashini sezish mumkin. Yozuvchi hikoyada eng oddiy detallarni ham badiiy ruhda ifodalay olgan. U har bir voqea-hodisaga o'ziga xos obrazlilik va teranlik baxsh etgan." [2-40]

Hozirgi davr adabiyotida hayvon obrazlarining antropologik, psixologik va ekologik tahlili kuchaymoqda. Bu esa ijodkorlardan faqat badiiyyondashuvni emas, balki falsafiy yondashuvni ham talab qilib keladi. Shu ma'noda, Said Ahmad va Chingiz Aytmatov ijodida hayvonot olami obrazlari poetik tasvirdan ko'ra, ijtimoiy-falsafiy anglash doirasida ham o'rganilishi lozim

bo'lgan voqeadir. Said Ahmad va Chingiz Aytmatov asarlarida hayvonot olami obrazlari inson va tabiat o'rtasidagi murakkab aloqalarni yoritishda muhim badiiy vosita sifatida xizmat qiladi. Har ikki yozuvchi hayvonlar orqali insoniy fazilatlar, jamiyat masalalari, ma'naviy qadriyatlar va ekologik xavflarni yoritib bergan. Antropomorfik yondashuvda, har ikki yozuvchi hayvon obrazlariga insoniy fazilatlar yuklab, ularni jamiyatdagi ijtimoiy va axloqiy masalalarni yoritishda vosita sifatida foydalangan. Ramziy ma'no esa, hayvonlar orqali insoniyatning axloqiy va ma'naviy tanazzuli, tabiat bilan qarama-qarshi masalalarni ramziy tarzda ochiqlagan. Gumanistik yondashuv bilan tabiat va hayvonot olamiga romantik va gumanistik yondashuv ustun bo'lib, inson va tabiat o'rtasidagi birgalikni ta'minlashga undaydi. Chingiz Aytmatov esa hayvonot olamiga epik-falsafiy yondashuv bilan yondashadi. Uning "Qiyomat" asaridagi Akbara va Toshchaynarinsonlar tomonidan vayron qilingan tabiatning so'nggi mavjudotlari sifatida tasvirlanadi. Aytmatov asarda shunday yozadi: "Bo'ri – bu tabiatning o'zi edi. U inson tomonidan haydab chiqarilgan, ammo hali ham tirik edi. Unga qarshi kurash – bu o'z vijdoniga qarshi kurash edi."

Bu iqtibosda hayvon obrazining jamiyatga qarshi burilgan "o'ch oluvchi" timsolga aylanishi ifodalangan. Aytmatov hayvonlar orqali insoniyatning ma'naviy inqirozini, ekologik falokatni va tabiatdan ajralib qolgan insoniyatning fojeasini aks ettiradi.

"Qorako'z majnun" — Said Ahmadning mustaqillik yillarida yozilgan eng sara hikoyalaridan biridir. Hikoyaning syujeti murakkab bo'lmasa-da, unda insoniy tuyg'ularning teran tasviri berilgan. Asarda keksayib qolgan Saodat aya bir necha o'n yildan beri harbiy xizmatga ketib, boshqa yurtda oila qurib, bola-chaqali bo'lib ketgan o'g'li Bo'rixonni kutadi. Har kuni sahar namozida Xudoga yolvorib, uni eslaydi, sog'inadi. Saodat ayaning xarakterida o'zbekning chin muslima buvilariga xos fazilatlar mujassam: u nafaqat bu dunyo, balki u dunyo haqida ham chuqur mulohaza yuritadi, har bir ishni sabr, shukr va e'tiqod bilan qarshi oladi. Bu obraz orqali muallif milliy mentalitet, ona mehri, sadoqat va e'tiqod singari ma'naviy qadriyatlarni ko'rsatishga intiladi." [3-75]

Yana bir misol: Said Ahmadning "Qorako'z Majnun" asarida it obrazi muhabbat, sadoqat va fidoyilik timsoli sifatida tasvirlanadi. Unga berilgan tasvir – insoniy mehr bilan boyitilgan: "Qorako'z shunchaki it emas, u meni tushunardi, men bilan birga iztirob chekardi." [4-89]

Bu yerda hayvon – insonning ichki dunyosini ifodalovchi badiiy ko'zgu sifatida gavdalanadi. Aytmatovda esa "Oq kema" qissasida bola qalbidagi orzu va haqiqat to'qnashuvi baliq – afsonasi orqali namoyon bo'ladi: "U baliq emas edi, u bu bolaning oxirgi umidi edi, o'zining ajdodlari singari ozod yashashga bo'lgan ishonchi edi." [5- 172]

Bu yerda hayvon (baliq) obrazi – butun milliy madaniyat, qadriyatlar, orzular va insoniylik timsolini tasvirlaydi. Afsona hayotda amalga oshmaydi, bola esa xayolotga berilib nobud bo'ladi – bu esa ramziy yakun: inson – tabiat – jamiyat uchligi parchalanganini ifodalaydi. S. Ahmadning adabiy merosida hayvon obrazlari inson qalbi, muhabbat, sadoqat, orzu va ezgulik timsollarini ifodalovchi badiiy qurol sifatida faol foydalanilgan. Yozuvchi ularni tabiatning jonli timsoli sifatida emas, balki inson ruhiyatining chuqur poetik ko'zgusi sifatida ifodalaydi: "Kampirning ovozi…Magnitofondan kampirning ovozi kelardi.'… Qorako'zgina, qayoqlarda sanqib yuribsan? … Laylingni bir olib

kel, ko'ray… Qorako'z kampirning ovozi kelayotgan boloxona tomonga yuzini burgancha jonsiz yotardi." [4-91]

Bu satrlar orqali inson – tabiat – jamiyat uchligi buzilganining poetik aksini ko'ramiz: jamiyat tomonidan unutilgan bir kampir va unga bog'langan sodiq it obrazi orqalik, muallif jamiyatda qadrsiz qolgan insoniy tuyg'ular – sadoqat, muhabbat, orzu va ezgulik haqida chuqur iztirob bilan fikr yuritadi. Hayvon obrazi bu yerda tabiatning shunchaki "jonli mavjudoti" emas, balki insoniylik ko'zgusi sifatida gavdalanadi. Qorako'z nafaqat kampirning do'sti, balki uning yagona tayanchi, hatto ruhiy ajralmas qismidir.

"Oq kema" asarida hayvonlar tasviri o'quvchiga orzular, poklik va tabiat bilan uyg'unlikni yetkazish uchun foydalanilgan. Baliq obrazida tabiat va orzu o'rtasidagi munosabatlar namoyon bo'ladi. Baliq – beg'uborlik, orzu va tabiatga bo'lgan ehtirosni ifodalovchi ramz sifatida foydalanilgan."U baliq haqida o'ylardi, u bilan dildan gaplashganday bo'lardi.Baliq – uning yagona do'sti edi." [5-88]

Baliq – bir tomondan, orzularni, go'zallikni va beg'uborlikni ifodalaydi, ikkinchi tomondan esa, tabiatning o'ziga xos sirlari va sokinligini ifodalovchi ramzdir. U bola va uning orzu qilingan dunyosining haqiqiy qahramoniga aylangan.

Ushbu tahlilda hayvon obrazlari nafaqat tabiatning sodiq ramzlari sifatida, balki insoniyatning ichki holatini, ijtimoiy masalalarini yoritib beruvchi vosita sifatida foydalanganini ko'rish mumkin. Har bir asarda hayvonlar orqali inson ruhiyati, axloqiy qadriyatlar va orzular namoyon bo'ladi.Aytmatovda hayvon obrazlarining mifologik va ramziy qatlamlari yuqori qatlamg chiqqan va asarlarning chuqur mohiyati orqali o'quvchiga keng qamrovli tasvirlarni tasvirlab beradi. Aytmatov hayvonlarni nafaqat tabiatning jozibali timsollari deya qolmay, balki mifologik va ramziy qatlamlarda insoniyat va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni aks ettiruvchi elementlar sifatida foydalanadi. Uning asarlarida hayvonlar orqali insoniyatning ruhiy holati, tabiat bilan uyg'unlik, odam va hayvon o'rtasidagi aloqalar ochib beriladi.

Said Ahmad va Chingiz Aytmatov asarlarida hayvonot olami va uning tasviri alohida ro'l o'ynaydi. Ular hayvonlarni faqat tabiiy jonzotlar sifatida emas, balki insoniyatning ichki dunyosini, axloqiy qadriyatlarni, orzularni va jamiyatni aks ettiruvchi timsollar sifatida asarlariga kirita olishgan. Har ikkala yozuvchi o'z asarlarida hayvonlar orqali insonning axloqiy holatini, tashqi va ichki dunyosidagi o'zgarishlarni namoyon etadi. Said Ahmadda hayvonot olami tasviri shunday yoritilgan: hayvonlar asosan insoniyatning ruhiy va axloqiy holatlarini ochib beruvchi obrazlar sifatida yuzaga chiqadi. Uning she'riy va nasriy asarlarida hayvonlar obrazlari ramziy va metaforik ma'nolarga ega bo'lib, ular orqali insonga axloqiy saboqlar berib boriladi. Masalan, "Qorako'z Majnun" asarida itinsonning ichki holatiga, orzulariga va axloqiy qadriyatlariga oid g'oyalarni aks ettiradi. Said Ahmad, xususan, hayvon obrazlaridan foydalanishda tabiatga, muhabbatga va sadoqatga bo'lgan insonning daxldorligini ko'rsatib bera olgan. Hayvonot olami uning asarlarida insonning etika va axloqiy qoidalarini namoyon qilish uchun ishlatiladi. Chingiz Aytmatovda hayvonot olami tasvirini quyidagicha ifodalash mumkin: Chingiz Aytmatov asarlarida hayvonlar mifologik va ramziy ma'nolarga egaligi bilan alohida ajralib turadi. Uning hayvon obrazlari ko'pincha insoniyatning tabiat bilan bog'lanishini, xatoliklarni, erkinlikni va ma'naviyatni yoritib keladi.

Asarlarida, masalan, "Oq kema", "Jamila" va "Asrga tatigulik kun" kabi asarlarda, hayvonlar ko'pincha tabiatning go'zalligi, insonning ichki dunyosi va yurakdagi orzularini ifodalovchi vosita sifatida ifodalanadi. Aytmatovda hayvonlar ko'pincha mifologik qahramonlar bo'lib keladi. Masalan, "Oq kema" asarida baliq – yuksak ma'naviyat, orzu va poklikning ramzi sifatida ishlatiladi. Aytmatov hayvonlarni insoniyatning etika va axloqiy qadriyatlarini aniqlashda ishlatadi va ko'pincha hayvonlarning ramzi orqali insonning ichki izlanishlari va tabiat bilan aloqasi haqida so'z yuritadi. Said Ahmad va Chingiz Aytmatovda hayvon obrazlarining mifologik va ramziy ma'nolariham turlicha ma'no kasb etadi. Aytmatovda hayvon obrazlari ko'p hollarda mifologik va ramziy qatlamda chuqur ma'noga ega bo'lib, ular insoniyat va tabiat o'rtasidagi aloqaning nozik qatlamlarini yoritadi. "Oq kema" asarida baliq – insonning orzu va idealizmini, go'zallik va poklikni ramziy tarzda namoyon etadi. Bu baliqning mavjudligi insoniyatning chuqurma'naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi kuchli timsolga aylangan.

Said Ahmad va Chingiz Aytmatov asarlarida hayvonlar insoniyatning ijtimoiy portretini yaratishda foydalaniladi. Hayvon obrazlari bilan ularning jamiyatdagi o'zgarishlar, ijtimoiy me'yorlar va individual qadriyatlarni ifodalashga bo'lgan urinishlari aniq sezilib turadi. Said Ahmad asarlarida hayvonlar insonlarning ichki va tashqi dunyosidagi ijtimoiy va axloqiy ko'rsatkichi aks ettiradi. U, xususan, hayvonlar orqali jamiyatdagi sadoqat, muhabbat va do'stlik kabi qadriyatlarni yoritadi.Bu ijtimoiy o'rnaklar hayvonlar yordamida o'quvchiga uzatiladi, bu orqali axloqiy fikrni va yaxshi inson bo'lishning zarurligini aytib o'tadi. Aytmatovda hayvonlar inson va tabiat o'rtasidagi ijtimoiy aloqaning ramzi sifatida yuzaga chiqadi. "Oq kema" va "Jamila" asarlarida hayvonlar insoniyatning orzulari va haqiqat o'rtasidagi farqni ochib bergan. Bu asarlarda hayvonlar, ayniqsa baliq va kaptar kabi obrazlar, jamiyatdagi ulug'qadriyatlarni aks ettiradi va odamlarning ijtimoiy muammolari va ruhiy holatlari bilan bog'liq holda kechadi.

Said Ahmad va Chingiz Aytmatovning asarlarida hayvonot olamining tasviri nafaqat badiiy ramzlar, balki insoniyatning ruhiy, axloqiy, ijtimoiy va estetik holatini aks ettiruvchi timsollar sifatida namoyon bo'ladi. Har ikkala yozuvchi hayvon obrazlarini badiiy uslub va metaforik yondashuv orqali ijodiy ravishda foydalangan va ularning tasvirlari orqali insonning ichki dunyosini, tabiiy va ijtimoiy aloqalarini, axloqiy qadriyatlarini ko'rsata olgan.

Bu yozuvchilar, hayvonot olamini tasvirlayotganda, insoniyatning o'ziga xos xarakterlari, yuksak idealari va jahon bilan bo'lgan munosabatlarini ochib berish maqsadida hayvonlar obrazlaridan unumli foydalanishgan. Said Ahmad asarlarida hayvonlar insoniyatning ichki holati, orzu va orzulari bilan aloqador bo'lib, ular orqali axloqiy saboqlar va jamiyatda o'zaro hurmat, sadoqat, sevgi kabi qadriyatlarni aks ettiradi.

Yuqoridagi tahlil, Said Ahmad va Chingiz Aytmatovning hayvonot olami tasvirlarining umumiy tomonlarini ifodalaydi. Har ikkala yozuvchining asarlarida hayvonlar insoniyatning axloqiy, ruhiy va ijtimoiy holatlarini ifodalovchi kuchli timsollar sifatida yuzaga chiqadi. Aytmatov hayvonlarni ko'pincha mifologik va ramziy taraflama tasvirlasa, Said Ahmad hayvonot olamidan axloqiy saboqlar, ehtiroslar va samimiylikni aks ettirishda yetakchilik qiladi. Ularning hayvon obrazlaridan foydalanishdagi yondashuvlari bir-biridan farq qilsa-da, ikkisi ham hayvonot olami va insoniyat o'rtasidagi nazariy va amaliy bog'liqlikni ta'riflab o'tishadi. Hayvonlar, ayniqsa, bu adabiyotda tabiatning o'ziga xos

elementi sifatida tasvirlanadi va insonning ularni anglash orqali tabiat bilan uyg'unlashishi, erkinligi va ma'naviyati haqida chuqur mulohazalar yuritishga undaydi. Aytmatov va Ahmadning asarlarida bu ideyalar ko'plab timsollar orqali ochib berilgan bo'lib, ular hayvonot olamini tasvirlash orqali jamiyatning axloqiy va estetik qadriyatari bilan bog'liq masalalarni o'rtaga tashlaydi. Shuning uchun, adabiyot orqali hayvonlarning huquqlarini himoya qilish, ular bilan teng muomala qilish masalasi, jamiyatning ma'naviy darajasi va tabiatga bo'lgan hurmatni yanada kuchaytirish uchun xizmat qiladi.

Shunday qilib, Said Ahmad va Chingiz Aytmatovning asarlarida hayvonot olami tasviri insoniyatning tabiiy dunyo bilan uyg'unlashishi, axloqiy qadriyatlar va jamiyatni yaxshilashga bo'lgan harakatlarini ochib beradi. Hayvonlar obrazlari orqali ularning asarlarida insoniyatning o'zi bilan, o'zining ichki dunyosi va atrofdagi tabiiy dunyo bilan bog'lanishini tushunishga oid muhim g'oyalar ilgari suriladi. Hayvonlarning huquqlari masalasi esa ayni paytda jamiyatda katta ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 50-moddasida tabiatni himoya qilishga va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga mas'uliyatli munosabatda bo'lishga undagan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Hayvonlarga nisbatan huquqlarni himoya qilish to'g'risida"gi qonuni hayvonlarning huquqlarini himoya qilish, ularni shafqatsizlikdan, zo'ravonlikdan saqlashni nazarda tutadi. Bu qonun asosida hayvonlarga qarshi zo'ravonlikni taqiqlash, ularga zarar yetkazish va ularning tabiiy yashash muhitini buzish kabi harakatlar jinoiy javobgarlikka tortilishi aytib o'tilgan. Hayvonlarning huquqlarini himoya qilish, ularning tabiiy yashash muhitini saqlash, insoniyatning mas'uliyatini anglash va tabiatga hurmat bilan munosabatda bo'lish kerakligi bugungi kunda ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa, nafaqat tabiatning, balki jamiyatning ham uzluksiz taraqqiyoti uchun juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. –T.: Xalq merosi, 2004, 11 b.
2.Boboyev T. Adabiyotshunoslikka kirish. T., "O'qituvchi", 1979, 40 b.
3.Normatov U. Said Ahmad [Adabiy portret], T., 1971, 75 b.
4.S.Ahmad, "Qorako'z Majnun", 1975-yil, 89-bet, 91-bet.
5.Ch. Aytmatov "Oq kema", 1970-yil, 172-bet, 88-bet.